

Samarqand viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi va Toyloq tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi orasidagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarni saqlash ishlari bo'yicha tuzilgan

✓
SHARTNOMA № 13/2 M-AYS 2022

“31” 01 2022-yil

Samarqand shahri.

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi nomidan tashkilot nizomi asosida ish ko'ruvchi N.Sanaqulov, ikkinchi tomondan matnda keyingi o'rinda «Pudratchi» Toyloq tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi nomidan korxonani asosida ish ko'ruvchi v.b. Sh.Umirov O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi tomonidan aniq manzilli yo'l ishlari ro'yxatida tasdiqlangan umumfoydalanuv mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarini saqlash ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 666-685-moddalari hamda Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 1-noyabrdagi 226-son va 31.12. 2011-yildagi 352-son qarorlariga asosan ushbu pudrat shartnomasini tuzdilar.

1. ATAMALAR - TUSHUNCHALAR

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

Ijro hujjatlari - joyida bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda yo'llarni saqlash ishlariga ishchi chizmalar va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar berkitilgan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar ishlarni bajarish daftarlari, yo'llardan foydalanish bo'yicha ko'rik jurnallari, yo'l va ko'priklar pasportlari, harakat jadalligi qaydnomasi va boshqa yo'llarga oid hujjatlar asosida ish yuritiladi.

Xarajatlar smetasi - qonunda belgilangan tartibda yuqori tashkilotlar tomonidan kelishilib, tasdiqlanadigan, oyma-oy xarajatlar moddalari bilan ko'rsatiladigan hujjat.

2. SHARTNOMANING MAQSADI.

2.1. Buyurtmachi Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi, Toyloq tumanidan o'tuvchi umumfoydalanuvdagi mahalliy ahamiyatiga ega avtomobil yo'lining qatnov qismi, yo'l ko'tarmasi, suv ketkazish tizimi, sun'iy mustahkamlovchi himoyalash, boshqaruvchi inshootlar, parom kechuvlari, yo'l jihozlari, dam olish joylari va tarixiy yodgorlikka borish yo'llari, kesib o'tish va chiqish yo'llari, qaytarish joylarda, doimiy ravishda paydo bo'ladigan mayda shikastlanishlar, toshqinlar va muz ko'chishi davrida yemirilishining oldini oladigan profilaktika ishlarini olib borish va uning barcha mol-mulkini O'zbekiston Respublikasi «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi harakatdagi qonuniga asosan «Pudratchi»ga avtomobil yo'llarni saqlash ishlarini bajarish uchun topshiradi, Pudratchi esa tashkilot nizomida unga berilgan vakolatlar doirasida mazkur shartnoma majburiyatlarni bajarishni zimmasiga oladi.

3. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3.1. Shartnoma bahosi 2022-yil 1-chorak tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan **71 679 000** (yetmish bir million olti yuz yetmish to'qqiz ming) so'mni tashkil etadi, keyingi choraklarda ajratiladigan qo'shimcha mablag'lar, xarajatlar smetasiga asosan belgilanadi.

4. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha ko'zda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- avtomobil yo'llarni saqlash ishlari, tizimdagi yo'l xizmatining Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi oldidagi majburiyatlari to'g'risidagi ko'rsatmalarga qattiq rioya qilish;

- barcha yo'l ishlari mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni buyurtmachiga topshirish;

- buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida yordamchi pudratchi korxonalar bilan shartnomalar tuzish, shartnoma mavzusi, yordamchi pudratchi korxonaning nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

- texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof-muhitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yo'l mintaqasini muhofaza qilish bo'yicha zarur, shuningdek tadbirlarni bajarilishini ta'minlash.

4.2. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni o'z kuchi bilan yordamchi pudratchi korxonalar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda avtomobil yo'llarini texnik soz holatda saqlash bo'yicha buyurtmachi oldida to'liq javob beradi.

4.3. Pudratchi ta'mirlash uchastkalarida transport qatnovini uzluksiz va xavf-xatarsiz o'tib turishi uchun javobgardir.

4.4. Pudratchiga shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda uch oy mobaynida surunkali belgilangan rejalarini bajarmagan taqdirda qonunda belgilangan tartibda intizomiy va moliyaviy chora ko'riladi.

4.5. Pudratchi ob'ektda bajargan ishlarning hajmlarini ijro hujjatlarini, qilingan sarf-xarajatlarni buyurtmachi tomondan mazkur ob'ekt uchun birlashtirilgan texnik kuzatuvchi bilan har oyning 30 kunigacha ob'ektning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni Samarqand viloyat AYBB ga topshiradi.

5. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan pudratchi tomonidan yo'llarni saqlash ishlari bo'yicha va boshqa qabul qilingan majburiyatlar funksiyalariga rioya etilishini nazorat qilish,

- Pudratchidan saqlash ishlari ishlarini qabul qilib olishni ta'minlash;

- Pudratchining barcha murojaatlarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

Ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

6. SHARTNOMANI BAJARISH MUDDATI.

6.1. Shartnoma 2022-yil "___" _____ 2022-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

7. TO'LOV VA HISOB-KITOB SHARTLARI.

7.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha yo'lni saqlash ishlari uchun moliyalashtirish jadvaliga muvofiq har chorakda, chorak hisobidan 40% avans to'lovi va qolgan oylardan avans chegirilib, qolgan to'lov amalga oshiradi.

7.2. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish moliyalashtirilgandan so'ng ishlarni bajarish aktlari (F-3, F-5) asos hisoblanadi.

7.3. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan xolda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish va shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir.

Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

7.4. Buyurtmachi tomonidan Pudratchining bajarilgan ta'mirlash ishlari bo'yicha dalolatnomalar (F-3) ijro sxemalari va kerakli hujjatlari to'liq taqdim etilmaganda moliyalashtirish to'xtatib turiladi.

8. ISHLARNI BAJARISH.

8.1. Buyurtmachi avtomobil yo'llarni saqlash ishlari ishlarini ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

8.2. Agar Buyurtmachi Pudratchi va uning yordamchi pudratchi korxonalari tomonidan ishlarning sifatli bajarilganligi aniqlansa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan ta'mirlash qiymatini ko'paytirmasdan, ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

8.3. Ishlar boshlangan paytdan ular tugallanguncha Pudratchi yo'llarni saqlash ishlari uchun ko'rik daftarini, ta'mirlashda ishlarni bajarish daftarini yuritadi, daftarda butun ishlarni borishi Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar aks ettiriladi.

- agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydalaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

8.4. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha-hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga,

mahalliy standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8.5. Pudratchi Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni o'zaro belgilangan muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarni qurish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

9. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

9.1. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin ta'mirlashni boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda,
- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarining sifati pasayishga olib keladigan darajada buzilganda.

9.2. Pudratchi:

- ishlarining bajarilishi pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatda to'xtatib qo'yilganda,
- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomalarning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega,
- shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

10. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

10.1. Tomonlarning bir shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

- Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirilmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchi kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining 20% foizidan oshmasligi lozim.

- shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashda asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortganligi uchun summani 5% foizi miqdorida jarima to'laydi.

- Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 20% foizidan oshmasligi lozim.

- Muddati o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

11. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

11.1 Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal eta olmasa, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Samarqand shahar iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

12. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI.

12.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday holatda qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.



12.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish uchun qanday choralar ko'rilishini yuqori tashkilotlar va tegishli mutaxassislar hamkorligida muhokama qiladilar.

13. ALOHIDA SHARTLAR.

- 13.1 Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari me'yorlari qo'llaniladi.
- 13.2 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.
- 13.3 Mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolanib g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.



14. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

BUYURTMACHI

Nomi: Samarqand viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi
Manzili: Samarqand shahar, Nabiyeva ko'ch, 3-uy
Shaxsiy x/r: 304510860184017045163118001
STIR (INN) 200711637
XXTK (OKNX) 97400
Tel/faks: 234-26-08, 234-26-59
Moliya Vazirligi G'aznachiligi
x/r: 23402000300100001010
Bank nomi: Markaziy bank XKKM Toshkent shahar boshqarmasi
Manzil: Samarqand shahar Ko'ksaroy maydoni, 1
STIR (INN): 201122919
MFO: 00014
XXTK (OKNX): 97160
Tel: 234-11-52
Imzo: 
Muhr: 


N.Sanaqulov

PUDRATCHI

Nomi: Toyloq TYFUK
Manzili: Toyloq t.Bog'izog'on qishlog'i
x/r: 22626000900441445004
STIR (INN) 200957195
XXTK (OKNX) 42110
Bank nomi "Milliy bank Samarqand filiali"
MFO: 00278
Imzo: 
Muhr: 

SH.Umirov

Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.)  
Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi: 1657804 01.01.2021
Imzo qo'yilgan sana " " 2022-y.

Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.) 
Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi: _____
Imzo qo'yilgan sana " " 2022-y.

"КЕЛИШИЛДИ"

Самарқанд вилоят АЙХББ бошлиги

Н.Санакулов

2022 йил

" " " 2022 йил

"ТАСДИҚЛАЙМАН"

Тойлок ТИФУК директори иб

Ш.Умиров

" " " 2022 йил

Тойлок ТИФУК нинг умумфойдаланувдаги маҳаллий аҳамиятдаги автомобиль йўлларни сақлаш ишларига 2022 йил учун харажатлар

С М Е Т А С И

Г/р	Ходимлар вазифаси	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	
		Ходимлар сони	Даражаси	Тариф коэффициенти	Мехнатга ҳақ	Тулашнинг энг кам миқдори	Жами маош (5гр*6гр)	харакат қисмидан йўл пули (7гр*20%)	Мукофот (7гр*75%)	Хаммаси 1 ойлик (7гр+8гр+9гр) иш ҳақи	Жами 3 ойга (10гр*гр*3 ой)	Хар 1 байрамга 1 маош 1 та байрам (7гр*2гр*1 та байрам)	Йил якуни бўйича (7гр*3гр)	Молний ёрдам (7гр*3гр)	Хаммаси 3 ойга (11гр+12гр+13гр+14 гр)	Ижтимоий ажратма 12% (15гр*12%)	Ҳақна иш ҳақи (15гр/3 ой/3гр)
Январь-март																	
1	Йўл бўлим бошлиги	1	8	1,630	822000	1339860	0	535944	1875804	5627412	3349650	0	0	8977062	1077247	2992354	
2	Йўл устаси	1	6	1,384	822000	1137648	0	455059	1592707	4778122	2844120	0	0	7622242	914669	2540747	
3	Ишчи	4	1	1,000	822000	822000	164400	328800	1315200	15782400	8220000	0	0	24002400	2880288	2000200	
6	Ишчи	1	1	1,053	822000	865566	173113	346226	1384906	4154717	2163915	0	0	6318632	758236	2106211	
7	Ишчи	1	3	1,106	822000	909132	181826	363653	1454611	4363834	2272830	0	0	6636664	796400	2212221	
	Ж а м и:	8								34706484	18850515	0	0	53556999	6426840	2231542	
I	Асосий ва қўшимча иш ҳақи															53 556 999	
II	Иш ҳақидан ажратма, 12%															6 426 840	
III	Материал харажати															2 345 726	
IV	Транспорт харажати, трактор ва йўл пагурул хизмати.															0	
V	Бошқа харажатлар															0	
	Жами															62 329 565	
	Қўшилган қиймат солиғи (15%)															9 349 435	
	Хаммаси															71 679 000	

Бош муҳандис:

Бош ҳисобчи:

Иқтисодчи:

А.Мирзоев

Н.Яхшиев

Т.Маматкулов